

PANDNOMA DOSTONLAR HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Tursunmurodov Shohruh Uralovich

GFA o'qituvchisi

shohruhtursunmurodov1994@gmail.com

Annotatsiya. Dunyo she'riyatida, adabiyotida pand-nasihat ruhidagi asarlar – pandnomalar juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu dastlab barcha adabiyotlar uchun xos bo'lgan. Sharq mumtoz adabiyoti didaktikasi uchun asosiy manba esa Qur'oni karim bo'ldi. Unda belgilab berilgan kishilarning yashash tarzi, atrof-muhit bilan munosabati, inson va inson, inson va dunyo, inson va ikki olam masalasi sharq donishmand shoirlari uchun dasturulamal bo'ldi. Ushbu maqolada pandnoma dostonlar paydo bo'lishi haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: rivoyat, folklor, tarjima, pandnoma, doston, “*Kalila va Dimna*”, “*Qobusnomá*”.

“*Kalila va Dimna*” rivoyatlarga ko‘ra aslida qadim zamonlarda hind faylasuf olimlari tarafidan yozilgan. U Hind folklori asosida yaratilgan bo‘lib, Eron shohi Anushiravon (531-579) davrida Hindistondan saroy fuzalolaridan bo‘lgan Barzuya hakim tomonidan yashirincha Eronga keltirilib, pahlaviy tiliga tarjima qilingan. Bu tarjima yo‘qolib ketgan, lekin pahlaviy tilidan suriya tiliga qilingan tarjima (taxminan 570 yillar, mutarjim Bud nomli shaxs) adabiyotga nodir yodgorlik sifatida qo‘sildi. “*Kalila va Dimna*”ning Abbosiylar xalifaligi davrida o‘sha zamonning eng donishmand olimlaridan bo‘lmish kotib Abdulla ibn-al Muqaffa (721-757) tomonidan arab tiliga qilingan tarjimasi uning butun dunyo bo‘ylab tarqalishiga sabab bo‘ldi.

G‘arbda tarjima qilishda asl matnni mumkin qadar o‘z holicha saqlab qolishga intilish, sharqda esa aksari asl matnni erkin tarjima qilish an’anasi kuchlidir, sharqda tarjimon asl matnni qisman bo‘lsa-da, o‘z dunyoqarashi va davri talablariga ko‘ra talqin etish va shu bilan birga, hatto o‘zidan qo‘shishga harakat qiladi, bu an’ana tusiga kirgan.

Sharq xalqlari tillariga qilingan tarjimalarga yondashishda shuni ko‘zda tutmoq lozim. Arab, fors va boshqa sharq tillariga qilingan tarjimalar shundan dalolat beradi. Bu narsa “Kalila va Dimna”ning o‘zbek tiliga qilingan tarjimalariga ham oiddir.

Uning o‘zbekchaga qilingan birinchi tarjimasi taxminan XIII asrga to‘g‘ri keladi. Bu tarjimaning yagona nusxasi Londonda “Indiya offis” kutubxonasida saqlanmoqda. 1837-1838-yillarda “Kalila va Dimna” Xivada Xorazm xonlaridan Olloqulixon hukmronligi davrida Mulla Muhammad Niyoz tomonidan forskadan o‘zbek tiliga tarjima qilinadi. Tarjimonning yozgan muqaddimasida asarning O‘rta Osiyoda keng tarqalganligi, sevilib o‘qilganligi, avval ham bir necha bor tarjima qilinganligi aytildi. “Kalila va Dimna”ning o‘zbek tilidagi tarjimalari orasida xalq ichida eng mashhuri 1898-yilda Toshkentda litografiya usulida nashr etilgan Qori Fazlulloh (taxallusi Almaiy) tomonidan bajarilgan tarjimadir. Boshqa sharq tarjimonlari kabi Almaiy ham asliyatni juda erkin tarjima qiladi, ma’lum darajada asarga o‘z hissasini ham qo‘shadi. Bu masalaning bir muhim tomonidir. Masalaning ikkinchi tomoni shuki, uning (Almaiyning) o‘ziga xos tarjima tili va uslubi bor [6].

Almaiylar tarijimani toshkentlik kitobsevar Muhammad Muso Isoqozi iltimosi bilan amalga oshirgan. Naql qilishlaricha u ko‘pdan bu kitobga qiziqib yurar, Almaiyga o‘qitib og‘zaki tarjima qilib yurar ekan. Nihoyat bir kuni u Almaiyga kitobni to‘liq tarjima qilishni iltimos qiladi va shoir 3 yillik ishni 3 oyda bitiradi.

“Kalila va Dimna” bundan 1700-yillar ilgari Kashmirda yaratilgan. Qadim nomi “Panchatantra” (“Besh kitob”)dir. Buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy u haqida shunday yozgan edi:

“Hind xalqi ilmning juda ko‘p tarmoqlariga va son-sanoqsiz kitoblarga ega. Ularning hammasini qamrab olish qiyin. Lekin shunga qaramay, bizda “Kalila va Dimna” nomi bilan yuri-tiladigan hindlarning “Panchatantra” kitobini tarjima qilishni juda xohlar edim. Bu kitobni hindchadan forskacha, forskadan arabchaga va undan so‘ng boshqa juda ko‘p tillarga tarjima qildilar». Almaiyning tarjimasi “Kalila va Dimna”ning turk (o‘zbek) tilidagi ilmga ma’lum bo‘lgan to‘rtinchli tarjimasidir. Almaiy o‘z tarjimasini

“Kalila va Dimna turkey” deb atadi. Kitobning o‘zbekcha tarjimalari orasida eng mashhuri ham shu bo‘ldi. Kitob aslida 14 bobdan iborat edi. Tarjimalar davomida qo‘shilib 19 taga yetdi.

Asar Iskandar Hindistonni egallagach qoldirib ketgan noibiga hindlar itoat etmay, oralaridan Dobshalimni shoh qilib ko‘targanligi va zamonlar o‘tib, Dobshalim xalqni unutib, kibr-havoga berilganligi uchun hind brahman (ruhoniy)lari orasida Bedpoy (Beydabo) degan bir donishmand podshoni to‘g‘ri yo‘lga solishga ahd qilganligi sababli yozilgan. U bir shogirdi bilan bir yil davomida uzlatga chekilib bir kitob yozdi. Bu “Kalila va Dimna” edi. Ko‘pni ko‘rgan Beydabo to‘g‘ri so‘zning podshoga qattiq tegishini bilib, barcha gaplarni vahshiy hayvonlar, darranda va parrandalar tilidan berdi. Shunga ko‘ra, u sodda odamlar uchun ermak, onglilar uchun ibrat edi. Dobshalim kitobdan mammun bo‘ladi.

Kalila va Dimna - asarning bosh qahramonlari, ikki shoqolning oti. Kitobdagagi voqeа roja (hindlarning hukmdori) va brahman (donishmand) orasidagi suhbat bilan boshlanadi. Roja brahmandan yolg‘on va tuhmat bilan do‘srlarning oralari buzilib, dushmanlikka aylangan hikoyalardan aytib berishini so‘raydi. Brahman “Sher va Ho‘kiz” haqidagi hikoyani aytib beradi. Sher va uning do‘sti bo‘lgan ho‘kizning orasini buzish, sher qo‘li bilan ho‘kizni o‘ldirish voqeasini o‘ylab topgan makkor Dimna va uning yovuzligidan xabardor bo‘lib yovuzligiga chidolmay o‘lgan ikkinchi shoqol Kalila voqeasi qoliplovchi hikoya sanaladi. Biroq bu hikoya ichidagi turli dalil va munosabat uchun keltirilgan o‘nlab hikoyachalar bo‘lib, ularning har biri o‘z holicha mustaqil, tugallangan syujetlarni tashkil qiladi. Roja va brahman suhbatini bundan keyin yana 13 bobda davom etadi. Roja mavzu beradi. Brahman biri-biridan maroqli, biri-biridan ibratlari o‘nlab hikoyalar aytadi. Bular hammasi insonga xos xislatlar - uning kamchilik va fazilatlari haqida. Birining samaralari, ikkinchisining oqibatlari haqida. Va ular, albatta, ma’lum bir munosabat bilan keltiriladi.

Almaiyl “Kalila va Dimna”ni o‘zbekchaga tarjima qilar ekan, uni o‘zbek yozuvchisining didi va qarashlariga moslashga harakat qildi. Ko‘pchilik tafsilotlarni

qisqartirdi. Boblardagi sarlavhalarni o‘zgartirdi. Mavzuni sarlavhaga chiqardi. Hikoyalarni she’riy parchalar bilan ziynatlashga, xulosa - hissalarni 2-4 misrali ixcham baytlar bilan berishga harakat qildi. Hind eposi “Kalila va Dimna”ni chindan ham “Kalila va Dimnai turkey”ga aylantirdi. Xalqimizni jahon adabiyoti durdonalari bilan tanishtirishda, o‘zbek va hind xalqlarini bir-birlariga yaqinlashtirishda muhim xizmat qildi [5].

Bu asar Sharq donishmandlari uchun ilhom manbai bo‘ldi. Ular o‘z pandnomalarida bu asarga u yoki bu tarzda murojaat qildilar.

Sharq va Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan axloqiy-ta’limiy fors-tojik badiiy nasrining birinchi va yirik yodgorligi (11-a.) “Qobusnama”dir. U Tabariston (Mozandaron) hukmdori Shams al-Maoliy Qobusning nabirasi Unsur al-Maoliy (Kaykovus, 1021-98) tomonidan fors tilida yozilgan (1082-83) va “Nasihatnomai Kaykovus” deb atalgan. “Qobusnama” shu asarning o‘zbekcha tarjimasidir. Muallif asarni o‘g‘li Gilonshohga bag‘ishlagan.

“Qobusnama” asosini Qur’oni karim suralari, Muhammad (sav)ning faoliyati va ko‘rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyatlar tashkil etadi. Asar 44 bobdan iborat. Dastlabki 4 bobi Haqni tanimoq, Payg‘ambarlarning xilqati (yaratilishi), Alloh ne’matiga shukur qilmoq haqida bo‘lib, qolgan 40 bobi ota-onani hurmatlash, ilmiy bilimlarni, san’atni egallash, harb, savdo, dehqonchilik ishlari va hunarni o‘rganish, odob-axloq qoidalariga rioya etish, farzand tarbiyasi, saxovat va juvonmardlik kabi ko‘plab masalalarni o‘z ichiga oladi. Asarda hunar va ilm jamiyat taraqqiyotining asosiy omillari deb qaraladi. Odamlar 3 guruhga bo‘linib, ularning jamiyatda tutgan o‘rnini belgilanadi; odamlarning fazilatlari ham 3 guruhga bo‘linadi: aqlilik, haqgo‘ylik, juvonmardlik.

Kaykovus dunyodagi mavjudotni bir- biri bilan bog‘liq va murosasiz deb talqin qiladi. U kishi ruhiyatini ham 2 guruhga bo‘ladi: jismoniy sezgini modda, ruhiy hissiyotni esa “jon” bilan bog‘laydi va bularning birini moddiy, ikkinchisini ruhiy hayot mahsuli deb ko‘rsatadi. Uning fikricha, dunyodagi hamma narsalar yaralishi va moiyat e’tibori

bilan ilohiydir. Zero, inson Alloho ni tanimoq uchun avvalambor o‘zini bilmog‘i, ya’ni “sozga qarab sozandani tanimog‘i lozim”, deydi. Bu kabi masalalar kitobda ixcham hikoyatlar, rivoyatlar, she’r va latifalar, maqol va hikmatlar yordamida bayon qilinadi.

“Qobusnama” butun dunyo sharqshunoslarining, Sharq olimlarining diqqatini anchadan beri o‘ziga tortib keladi. Asar turk (1432, 1705), uyg‘ur (1786-87), nemis (1811), o‘zbek (1860, Ogahiy tomonidan), tatar (1881), fransuz, rus (1886) va boshqa ko‘plab jahon tillariga tarjima qilingan. Ogahiy tarjimasining 2 qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston FA Sharqshunoslik in-tida, yana bir qo‘lyozma nusxasi Sankt- Peterburgda Saltikov-Shchedrin nomidagi Xalq kutubxonasida saqlanadi. “Qobusnama”ning Subutoy Dolimov tomonidan hozirgi o‘zbek tiliga o‘girilgan nusxasi Toshkentda juda ko‘p marta nashr qilingan.

Yana shunday didaktik adabiyot namunalari Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheraziyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlaridir.

“Guliston” bir necha asrlar davomida musulmon olamida darslik darajasida dasturulamal sifatida qo‘llanib kelingan. U 7 asr davomida bir necha bor o‘zbek tiliga o‘girilgan. Bu asarni birinchi marta 1390-1391-yillarda XIV asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Sayfi Saroyi “Guliston bit-turkiy” nomi bilan Misrda tarjima qilgan. XIX asrda “Guliston” Xiva xoni Muhammad Rahimxon II - Feruz topshirig‘i bilan zabardast shoir va mohir mugarjim Muhammadrizo Ogahiy tomonidan ikkinchi marta o‘zbek tiliga tarjima qilinadi. “Guliston”ning uchinchi tarjimasi toshkentlik mudarris va shoir Mullo Murodxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li qalamiga mansub bo‘lib, u “Shavqi Guliston” deb atalgan. “Murodxo‘ja madrasa talabalari ehtiyojini hisobga olib, asarning qiyin so‘z va iboratlarini sharhlagan va forsiy originalini ham qo‘sib, “G‘ulomiya” matbaasida nashr ettiradi” (1909). 1968-yili “Guliston”ning to‘rtinchi tarjimasi bosilib chiqdi. Asardagi she’rlarni G‘afur G‘ulom va Shoislom Shomuhamedov, nasr qismini Rustam Komilovlar o‘zbekchalashtirishgan. “Bo‘ston” asari avval Chustiy, keyin Sh. Shomuhamedov tomonidan tarjima qilingan bo‘lsa-da, bu tarjimalarning har ikkalasi ham to‘liq emas. Asar qisqartirilib, zamonga moslab. diniy-tasavvufiy ruhdagi qismlardan xoli

qilingan holda o‘zbekchaga o‘girilgan.

Bu yo‘lda, albatta, “Xamsa” dostonlar turkumining sharq adabiyotida paydo bo‘lishi didaktik asarlar rivojida katta voqeа bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Kalila va Dimna”. T.: “Yangi asr avlodi”. 2010. 23-bet
2. “Қобуснома”. Кайковус Унсурулмаолий. Т.: “Истиқлол”. 1994. 27-6.
3. Алишер Навоий. «Хамса». танқидий матн. Нашрга тайерловчи П.Шамсиев. Тошкент. «ФАН», I960 й
4. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/milliy-uygonish/begali-qosimov-fazlulloh-almaiy-1852-1891/?lng=lat>
5. <http://nimadir.uz/kutubxona/Kalila-va-dimna/>